



XILVATIY HAYOTI VA UNING “MAVLUDI SHARIF” ASARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

*Sharof Rashidov nomidagi
SamDU filologiya
fakulteti II kurs magistranti
Usmonova Anora*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xilvatiyning “Mavludi sharif” asarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, diniy-ma’rifiy mazmuni hamda tasavvufiy qarashlari tahlil qilinadi. Asarda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) siyrati, ul zotga bo‘lgan muhabbat, mavlud o‘qish va ehson qilishning savobli amallari badiiy hikoyatlar vositasida yoritilgan. Tadqiqotda shoirning “Mavludi sharif”ni mustaqil poetik asar sifatida yaratgani, undagi axloqiy-didaktik g‘oyalar hamda xalqona va ravon uslubning o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, asardagi tasavvufiy ramzlar, ilohiy ishq talqini va komil inson konsepsiyasi ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Xilvatiy, “Mavludi sharif”, tasavvuf, ilohiy ishq, mavlud, diniy-ma’rifiy adabiyot.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi adabiy-madaniy jarayonlar xalq ma’naviyati, tafakkuri hamda maorif tizimining rivojida muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Bu davrda faoliyat yuritgan ijodkorlar nafaqat badiiy tafakkur taraqqiyotiga, balki jamiyatning ma’rifiy ongini shakllantirishga ham salmoqli hissa qo‘shdilar. Davr she’riyati mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratilganda, unda ishq konsepsiyasi yetakchi poetik tamoyil sifatida namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Biroq mazkur ishq talqini ko‘proq ilohiy-ma’rifiy mohiyat kasb etib, tasavvuf falsafasi bilan uzviy bog‘langanligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli sovet mafkurasi hukmronligi davrida ushbu ijodkorlar merosi beryoqlama talqin qilinib, ularning tasavvufiy-estetik qarashlarini xolis baholash imkoniyati cheklangan edi. Milliy mustaqillik sharofati bilangina bu adabiy merosni yangicha metodologik asosda tadqiq etish imkoniyati yuzaga keldi. Mazkur davr vakillari an’anaviy madrasa ta’limi doirasidagina faoliyat yuritmaganlar. Ular Sharq mumtoz tafakkuri namoyandalarining ilmiy-badiiy merosini mustaqil ravishda o‘rganib, arab va fors tillarini chuqur egallaganlar. Natijada ularning ijodida zullisonaynlik an’anasi izchil davom etib, turkiy va forsiy adabiy tafakkur uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ldi. Bu holat esa davr adabiy muhitining intellektual salohiyati va estetik ko‘lamini yanada kengaytirdi.

XX asr boshlarida matbaa va davriy matbuotning shakllanishi milliy adabiyot taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, Namanganda



Ishoqxon Ibrat tashabbusi bilan bosmaxonaning tashkil etilishi adabiy merosni keng ommaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada davr shoirlari asarlari muntazam ravishda chop etilib, kitobxonlar orasida keng tarqaldi hamda ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojni qondiruvchi muhim manbalardan biriga aylandi. Mazkur adabiy meros o'zbek mumtoz adabiyoti an'alarini davom ettirgan holda, yuksak axloqiy-estetik va ma'rifiy g'oyalarni targ'ib qilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, davrning yetuk ijodkorlaridan biri bo'lgan Xilvatiy asarlarining 1907, 1910, 1911 hamda 1912-yillarda bir necha marotaba toshbosma usulida nashr etilgani uning ijodi adabiy jamoatchilik va kitobxonlar orasida katta e'tibor qozonganidan dalolat beradi. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy-madaniy muhitining yirik vakillaridan biri bo'lgan Xilvatiy ma'rifatparvarlik ruhida ijodi, diniy-irfoniy qarashlari hamda badiiy tafakkuri bilan adabiyot tarixida munosib o'rin egallaydi. Shoir 1858-yilda Namangan viloyatining Uychi hududidagi Jiydakapa qishlog'ida tavallud topgan. Nasl-nasab jihatidan mashhur mutasavvif shoir Huvaydo avlodiga mansub bo'lgan Xilvatiy dastlabki ta'limni an'anaviy diniy muhitda oladi va keyinchalik arab, fors hamda turkiy tillarni mukammal darajada egallaydi. Bu esa uning dunyoqarashi va poetik tafakkurining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xilvatiy o'z davrining ilg'or adabiy muhitida faol qatnashgan ijodkorlardan edi. U Muqimiy, Nodim, Ishoqxon Ibrat To'raqo'rg'oniy kabi taniqli shoir va ziyolilar bilan yaqin adabiy aloqada bo'lgan. Ayniqsa, Namangandagi "Azizxo'ja eshon" madrasasida tashkil etilgan mushoira va adabiy suhbatlar shoir ijodiy kamolotida alohida ahamiyat kasb etgan. Mazkur davrlarda olib borilgan she'riy bahs-munozaralar Xilvatiyning poetik mahoratini oshirib, uning badiiy-estetik qarashlarini boyitgan. Shoirning shaxsiy fazilatlari ham uning ijodiy qiyofasi bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. U tabiatan kamtarin, kamsuqum va xilvatni xush ko'radigan inson bo'lgani sababli o'ziga "Xilvatiy" taxallusini tanlagan. Mazkur taxallus shoirning ruhiy-ma'naviy olami va tasavvufiy dunyoqarashini ham ma'lum darajada ifodalaydi. Xilvatiy 1921-yilda, 63 yoshida, tug'ilib voyaga yetgan Jiydakapa qishlog'ida vafot etgan. Shoir vafotidan keyingi davrda uning adabiy merosi murakkab tarixiy sharoitni boshdan kechirdi. Xususan, XX asrning 30-yillarida kuchaygan qatag'on siyosati tufayli Xilvatiyning o'g'li Akmalxon to'ra otasining qo'lyozma va asarlarini yashirin saqlashga majbur bo'lgan. Keyinchalik bu bebaho adabiy meros folklorshunos olim Malik Murodovning sa'y-harakatlari bilan ilmiy muomalaga olib kirildi. 1970-yilda Malik Murodov va Muzayyana Alaviya Jiydakapa qishlog'iga tashrif buyurib, Akmalxon to'ra qo'lida saqlanib kelgan Xilvatiy merosini qabul qilib oladilar. Shu tariqa



shoirning ijodiy merosi keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun муҳим manbalardan biriga aylandi.

Xilvatiy adabiy merosi tarkibida ikki muhim qo'lyozma devon alohida ilmiy qimmat kasb etadi. Ushbu devonlar nafaqat shoir ijodining poetik ko'lamini, balki XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi adabiy-madaniy muhitni o'rganishda ham muhim manba vazifasini bajaradi. Shoirning birinchi qo'lyozma devoni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar institutida saqlanib, ilmiy fond tarkibida D.I belgisi va 1870 inventar raqami ostida ro'yxatga olingan. Mazkur devon tarkibiga 6886 bayt turkiy hamda 770 bayt forsiy she'rlar kiritilgan bo'lib, unda g'azal, muxammas, muvashshah, qasida, hajv va sarguzasht ruhidagi asarlar jamlangan. Devonning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda turli tarixiy voqealar, muayyan sanalar hamda tarixiy shaxslar bilan bog'liq ma'lumotlar o'zbek va fors tillarida qayd etilgan. Bu esa qo'lyozmani nafaqat adabiy, balki tarixiy-biografik manba sifatida ham qimmatli qiladi. Xususan, undagi ma'lumotlar orqali Xilvatiyning hayoti, ijodiy faoliyati va u yashagan davrning adabiy muhitiga oid ayrim jihatlarni aniqlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shoirning ikkinchi qo'lyozma devoni esa D.II belgisi bilan atalib, hozirgi kunda uning avlodlaridan biri — Akmalov Ma'rufjon tomonidan saqlanmoqda. Ushbu devonga jami 4540 bayt hajmidagi o'zbek va fors tillaridagi she'rlar jamlangan. Devon tarkibidan g'azal, muxammas, muvashshah, marsiya, hajv, qit'a hamda sarguzasht xarakteridagi she'rlar o'rin olgan. Shuningdek, unda fors tilida yozilgan 32 ta g'azal, muxammas va muvashshah mavjudligi Xilvatiyning zullisonayn ijodkor sifatidagi salohiyatini ko'rsatadi. Mazkur devonning yana bir muhim jihati unda ayrim tarixiy voqealar yoki shaxslar vafoti munosabati bilan yozilgan ta'rixlarning uchrashidir. Bunday namunalar davrning ijtimoiy-madaniy hayoti haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Shu bilan birga, ushbu qo'lyozmada Xilvatiyning nasabiga oid muhim ma'lumot — uning mashhur shoir Huvaydoning o'g'li Xolmuhammad eshon avlodidan ekani qayd etilgan. Bu esa shoirning ijodiy va ma'naviy ildizlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Umuman olganda, har ikki devon Xilvatiy tarjimai holi, ijodiy merosi hamda davr adabiy muhitini tadqiq etishda asosiy manbalardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Xilvatiy ijodiy merosida alohida o'rin tutuvchi asarlardan biri — "Mavludi sharif" bo'lib, u mazmun-mohiyati, poetik qurilishi hamda diniy-ma'rifiy yo'nalishi bilan o'zbek mumtoz adabiyotida muhim hodisa sifatida baholanadi. Asar 1895-yilda yaratilgan bo'lib, keyinchalik 1908, 1911, 1912 va 1916-yillarda toshbosma usulida qayta-qayta nashr etilgani uning xalq orasida keng ommalashganidan dalolat beradi. Mazkur asarning o'zbek xonadonlarida sevib mutolaa qilingani esa uning ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarni



qondirishdagi o'rnini ko'rsatadi. Islom adabiyoti tarixida Payg'ambar Muhammad alayhissalomning tavalludi va siyratlariga bag'ishlangan ilk mashhur she'riy asarlardan biri arab shoiri Sayyid Ja'far Barzanjiy tomonidan yaratilgan "Mavludi Nabaviy" hisoblanadi. Arab tilida yozilgan ushbu asar asosan diniy-ilmiy muhit vakillari, ya'ni arab tilini mukammal biluvchi ulamolar tomonidan tushunilgan va mutolaa qilingan. Xilvatiy esa ushbu an'anani davom ettirgan holda, mavlud janriga yangicha yondashadi. Uning "Mavludi sharif" asari Barzanjiyning oddiy tarjimasi emas, balki mazmuni, kompozitsion tuzilishi va uslubiy xususiyatlari jihatidan mustaqil badiiy asar sifatida shakllangan.

Shoir Barzanjiy asarini tarjima qilish bilan cheklanib qolmay, o'zining ijodiy-estetik qarashlari asosida yangi poetik talqinni yaratishga intilgan. Natijada Xilvatiy "Mavludi sharif"i o'zbek mumtoz adabiyotida mavlud mavzusining milliy ruh va turkiy poetik tafakkur bilan uyg'unlashgan noyob namunasi sifatida yuzaga kelgan. Asar yigirma bobdan tashkil topgan bo'lib, unda Payg'ambar alayhissalomning tavalludi, hayot yo'llari, axloqiy fazilatlar va ummat uchun qoldirgan ma'naviy merosi badiiy ifoda etiladi. Mazkur asarning ilmiy-adabiy ahamiyati shundaki, u turkiy xalqlar adabiy muhitida Muhammad alayhissalom mavludiga bag'ishlab yaratilgan ilk mustaqil she'riy rivoyatlardan biri sanaladi. Ayniqsa, ushbu asarning o'zbek shoiri tomonidan yaratilgani milliy adabiyot tarixidagi muhim yutuqlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Keyingi davrlarda ham asarga bo'lgan qiziqish susaymagan bo'lib, u 2000-yilda Namanganda va 2015-yilda Toshkentda kirill yozuvida қайта нашр этилди. Bu holat Xilvatiy merosining bugungi kunda ham o'z ilmiy va ma'naviy qimmatini saqlab qolayotganini ko'rsatadi. Xilvatiy "Mavludi sharif" asarida mavludxonlikni nafaqat diniy marosim, balki insonni ma'naviy komillikka yetaklovchi savobli amal sifatida talqin etadi. Shoir asar muqaddimasidayoq ushbu kitobni mutolaa qilgan kishining saodat va ruhiy poklikka erishishini alohida ta'kidlaydi. Uning talqinicha, "Mavludi sharif" inson hayotida ezgulik sari yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy mayoq vazifasini bajaradi. Shu bois muallif asarni "saodatnoma" deb atab, kitobxonni uni o'qish va undan ma'rifiy-axloqiy saboq olishga da'vat etadi:

Ilginga olg'il davotu xomani,

Qil kitobat bu saodatnomani.

Mazkur misralarda shoir kitob yozish va ilm bilan shug'ullanishni ham saodat manbai sifatida talqin qiladi. Asarda Payg'ambar Muhammad alayhissalom siyratini o'rganish har bir musulmon ummati uchun sharafl va mas'uliyatli vazifa ekani alohida uqtiriladi. Bu g'oya quyidagi baytda yanada ravshan ifodasini topgan:



*Ya'ni mavludi Nabiyni nazm qil,
Ko'yi ummatlikka emdi azm qil.*

Shoirning fikricha, Nabiy alayhissalom hayotini o'rganish va ul zotga muhabbat qo'yish insonni haqiqiy ummatlik maqomiga yetaklaydi. Shu jihatdan asarda diniy-ma'rifiy g'oyalar tasavvufiy ruh bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. "Mavludi sharif"ning badiiy qimmatini uning sodda va ravon tilida ham ko'rinadi. Asar xalqona uslubda yozilgani sababli keng kitobxonlar ommasiga tushunarli bo'lgan. Shoir poetik ifoda vositalaridan mahorat bilan foydalanib, rivoyat va hikoyatlar orqali asar mazmunini yanada boyitgan. Xususan, mavlud o'qish, ehson qilish va ezgu amallar bajarishning fazilatlarini ko'rsatish maqsadida uchta hikoya keltiriladi. Bu hikoyatlar asarning didaktik yo'nalishini kuchaytirib, kitobxonni axloqiy komillikka chorlaydi.

Asardagi birinchi hikoya Bag'dod shahrida yashovchi saxovatpesha inson haqida hikoya qiladi. Shoir uni tasvirlar ekan, ilohiy ishq tushunchasini tasavvufiy ramzlar orqali ifodalaydi:

*Bor edi Bag'dod aro mardonaye,
Ishq ganjig'a dili vayronaye.*

Bu o'rinda "ishq ganji" iborasi ilohiy muhabbat ma'nosini anglatadi. "Dili vayrona" timsoli esa tasavvuf adabiyotidagi an'anaviy ramziy obraz bo'lib, dunyoviy havaslardan poklangan, Alloh ishq bilan to'lgan qalb ma'nosida qo'llangan. Hikoya qahramoni Payg'ambar Muhammad alayhissalomga cheksiz muhabbat bilan yashaydi. U har lahzada "Yo Muhammad" deya zikr qiladi, rabi'ul avval oyida esa tuyalar so'yib, kambag'allarga ehson ulashadi. Mazkur voqealar orqali muallif saxovat, mehr-oqibat va payg'ambar muhabbatini komil insonning asosiy fazilatlarini sifatida ulug'laydi. Hikoyadagi qarama-qarshi obraz — kufri afzal biluvchi qo'shni esa ma'naviy jaholat timsoli sifatida tasvirlanadi. Shu tariqa Xilvatiy badiiy kontrast vositasida ezgulik va yovuzlik, imon va jaholat o'rtasidagi tafovutni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavludi Sharif / Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. – Toshkent: Qamar media, 2021.
2. Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Navoiy she'riyatida Muhammad payg'ambar (sav) siymosi / O. Davlatov. – Toshkent, 2015.
4. Shamoilu mustafo. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga xos maqtalغان maqom va shafolat. – Toshkent: Islom.uz, 2021.
5. Qomus.info onlayn ensiklopediyasi. "Xilvatiy" maqolasi, 2021.